

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ISAKOVA BARNO TOXTASINOVNA

**UVAYSIY SHE‘RIYATIDA IRFONiy MAZMUN
VA “KARBALONOMA” DOSTONI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по филологическим наукам**

Isakova Barno Toxtasinovna

Uvaysiy she'riyatida irfoniy mazmun
va "Karbalonoma" dostoni..... 3

Isakova Barno Toxtasinovna

The irfanic content of Uvaisi's lyrics and
The Karbalonameh epic..... 25

Исакова Барно Тохтасиновна

Гностический смысл лирики Увайси и поэмы
«Карбаланаме»..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ISAKOVA BARNO TOXTASINOVNA

**UVAYSIY SHE‘RIYATIDA IRFONiy MAZMUN
VA “KARBALONOMA” DOSTONI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4. PhD.Fil.2874 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'ZR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Haqqulov Ibrohim Choriyevich,
filologiya fanlari doktori, professor

Rafiddinov Sayfiddin Sayfulloh o'g'li,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Adizova Iqboloy Istamovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi davlat
Adabiyot muzeyi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 23 avgust soat 12 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 9 avgust da tarqatildi.

(2023 yil 9 avgust da 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.F.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., akademik

R.Barakaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, filol.f.n., professor

U.A.Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ayol shoirlar ijodiga e'tibor, ularning hayot yo'li hamda ijodiy merosini o'rganish doimiy dolzarb vazifalardan hisoblanib, ayniqsa, ishq va irfon sohibalari bo'lmish sharq ayollarining asarlarini g'oyaviy-badiiy jihatdan o'rganish muayyan tarixiy davr haqida ayollar nuqtai nazaridan tasavvurlar uyg'otishi bilan e'tiborga sazovordir. Jahon otin Uvaysiy ham mana shunday adabiyot, hayot va ilohiyotni ijodida mujassam eta olgan shoiralardan bo'lib, uning asarlari sharq tafakkuri, ayol nazokati, tarix haqiqatlaridan xabar berishi bilan g'arb adabiyotshunoslarining ham e'tiborini tortgan.

Dunyo adabiyotshunosligida Uvaysiy va Nodira ijodiy hamkorligi ham muhim hisoblangan. Malika shoiralarning ijodi o'z zamonasidayoq turli jihatdan o'rganilgan. Nodiraga ma'naviy ustoz va ko'ngil yo'ldosh bo'lgan Uvaysiyning nomi ham tazkiralarda zikr etilib, ijodkorlikdagi yuksak mahorati e'tirof etilgan. O'zbek mumtoz adabiyotning salmoqli qismi sanalgan Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari orasida Uvaysiyning o'z o'rnini mavjud. Mazkur davrda yaratilgan asarlarning ma'no va shakl jihatdan boyishida Uvaysiyning ulkan hissasi bor. Mumtoz adabiyotda inson qismati, voqelikning badiiy ifodasi kabi masalalar ham Uvaysiy ijodiyoti misolida chuqurroq anglashiladi. Shoiraning fojiali qismaati uning dardli asarlariga ko'chgan. Shu ma'noda uning she'rlaridagi ma'rifiy mazmun va eng qayg'uli voqealardan biri aks etgan "Karbonoma" dostonini o'rganish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'yimoqda. "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekani, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rnini va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin egallagan Qo'qon adabiy muhitining vujudga kelishi va uning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek shoirlari qatoridan etakchi o'rin egallagan Jahon otin Uvaysiy ijodini to'liq o'rganish ham bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi vazifalardan biridir. Asarlarining bosh mavzusi Ishqi Ilohiyga bag'ishlangan Uvaysiy asarlari xususida shu kungacha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, shoiraning irfoniy qarashlari hamda "Karbonoma" ma'rifiy dostoni va badiiy mahorati to'liq ob'ekt sifatida yetarlicha tadqiq qilinmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017-yil, 4 avgust.

tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995 son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Uvaysiy ijodiga qiziqish o‘tgan XX asr boshida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning «Oina» jurnalida e‘lon qilgan Uvaysiy haqidagi maqolasi bilan boshlangan edi. Ma‘lumki, XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligida madaniyat va adabiyot taraqqiyoti borasidagi ma‘lumotlar sharqshunos olimlar, xususan, V.Bartold, V.Zohidov, A.Qayumov, V.Abdullaev asarlarida uchraydi. Uvaysiy hayoti va ijodini shu kungacha Cho‘lpon, Oybek, V.Zohidov, V.Abdullaev, H.Razzoqov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, T.Jalolov, E.Ibrohimova, I.Mo‘minov, M.Qodirova, I.Haqqulov, N.Jumaxo‘ja, I.Adizova, E.Ochilov, S.Olim, D.Farmonova kabi adabiyotshunos olimlar va yosh tadqiqotchilar turli jihatlardan tadqiq qilganlar². Bu tadqiqotlarda shoira hayotiga ko‘proq urg‘u berilib, ijodining o‘ziga xos ayrim jihatlari, badiiy mahorati masalalari yoritilgan. Uvaysiy lirikasidagi ma‘rifiy qarashlar, diniy-tasavvufiy g‘oyalar to‘g‘risida ham to‘xtab o‘tilgan. Adabiyotshunoslikda shoira ijodining o‘rganilish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Dastlabki “Uvaysiy adabiy merosini to‘plash va nashr qilish bosqichi”da

² Бу ҳақда қаранг: Чўлпон. Адабиёт надири? – Тошкент, 1994; Ўткир Рашид. Уч шоира. – Тошкент, 1958. – Б. 6; Увайсий. Девон. Нашрга тайёрловчилар: Қаюмов А, Иброҳимова Э. – Тошкент, 1959; Иброҳимова Э. Увайсий // Ўзбекистон маданияти. 1959. 23 декабрь; Қаюмов А. Қўкон адабий муҳити. – Тошкент, 1961; Увайсий. Девон. – Тошкент, 1963; Ўзбек шоирлари. Нашрга тайёрловчилар: Раззоқов Х., Улфат, Абдуллаев Ғ., Маматов Н., Жалолов Т. – Тошкент, 1970; Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 13-том. – Тошкент, 1979; Увайсий шеърятидан. – Тошкент, 1980; Ҳаққулов И. Увайсий шеърятини. – Тошкент, 1982; Увайсий. Қўнгул гулзори. Нашрга тайёрловчилар: И.Қосимов (Улфат), А. Валихонов (Боқир) – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1983; Ҳайитметов А. Боқий мисралар // Совет Ўзбекистони. 1983, 1 июнь; Адизова И. Дардсизлар захмидан беморман // Ўзбекистон санъати, 1997, №7; шу муаллиф. Увайсий ижодида жанрлар тақомили. – Т.: Мухаррир, 2011; Олим С. Ишқ, Ошиқ, Маъшук. – Тошкент: Фан, 1996; Жумахўжа Н. Ки булбул нола, афғон айламакни мендин ўрганди // Мулоқот, 1999, № 2; Мирҳайдаров Ҳ. Мувашшаҳнинг бир тури ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти №5;. Увайсий. Мазмун маъдани. Тузувчилар: Турдалиев А., Неъматов У. – Тошкент, 2010. Uvaysiy devonining bir qo‘lyozma nusxasi 1837 raqam bilan O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi; Andijon davlat universiteti kutubxonasida keyingi davrlarda ko‘chirilgan uch nusxa qo‘lyozma devon mavjuddir.

A.Qayumov, E.Ibrohimova, M.Qodirova, H.Razzoqov, G'.Abdullaev, N.Mamatov, I.Qosimov (Ulfat), A.Valixonov (Boqir) kabi bir guruh adabiyotshunoslar Uvaysiy devonini hozirgi yozuvga tabdil qilishi natijasida salmoqli so'zboshilarga ega bir necha nashrlar yuzaga kelgan. "O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi ilmiy tadqiqotlar, yangi talqinlar bosqichi"da I.Xaqqulov, S.Olim, N.Jumaxo'ja, I.Adizova, Mirhaydarov, D.Farmonova kabi olimlar shoira ijodiga chuqurroq kirib bordilar. Uvaysiy asarlari shakl va ma'no jihatdan mushtarak o'rganila boshlandi. I.Adizovanning "Uvaysiy ijodida janrlar takomili", "Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi" kabi monografiyalari uvaysiyshunoslikni yangi bohqichga olib chiqdi. Uvaysiy Qo'qon adabiy muhiti shoirlaridan farqli o'laroq, o'z she'rlari bilan mahorat maktabini yaratgan shoiradir. Ayniqsa, chiston janrining rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning "Karbonoma" dostoni ham o'zbek mumtoz adabiyotimizda alohida hodisalardan hisoblanadi. Shu bois shoira ijodiyoti tadqiqlari hali davom etishi shubhasiz.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları, jumladan, FA-F1-G039 "Alisher Navoiy (ikki jildlik) va Abdulla Qodiriy qomuslarini yaratish" mavzusidagi fundamental (2012-2016 yy.) va PZ-20170930220 "Navoiy qomusini nashrga tayyorlash va chop etish" (2018-2020 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Uvaysiyning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilash, Nodira lirikasi bilan uyg'un jihatlarini yoritish, ma'rifiy lirikasidagi obrazlar olamini tadqiq etish, xususan, payg'ambarlar, valiyalar obraziga e'tibor qaratish, badiiy mahorat qirralarini ko'rsatish, shuningdek, "Karbonoma" dostoni genizisi va mazkur dostonning Uvaysiy jodida tutgan o'rnini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Uvaysiy ijodi haqidagi hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga xolisona munosabat bildirish asosida shoira Qo'qon adabiy muhitida tutgan salmoqli o'rnini belgilash, xususan, shogirdi va hammaslagi Nodira she'riyati bilan qiyosan o'rganib, mushtarak jihatlarni aniqlash;

shoira lirikasida ustuvor bo'lgan irfoniy mazmun-mohiyatning ildizlarini ilmiy asoslash hamda payg'ambarlar, ularning ma'naviy vorislari bo'lmish valiyalar obrazining Uvaysiy she'riyatidagi rolini ko'rsatib berish;

mumtoz adabiyotdagi an'anaviy tasavvufiy istilohlarning Uvaysiy lirikasida qo'llanishidagi maqsad-vazifalar va obraz, ramz, timsol darajasiga ko'tarilishidagi shoira mahoratini irfoniy tahlil hamda talqinlar orqali ochib berish;

Uvaysiy she'riyati an'ana va novatorlik uyg'unlashuvining mumtoz namunasi ekanligini tadqiq qilish jarayonida Navoiy, Fuzuliy an'alariga ijodiy yondashuv va ularni boyitish xususiyatlarini aniqlash, shoira she'riyatidagi poetik tasvir, usul hamda vositalar haqida ayrim mulohazalarni bayon qilish;

badiiy adabiyotda "Karbonoma" janrining paydo bo'lish tarixini tadqiq etish, shuningdek, Uvaysiy dostonini g'oyaviy-badiiy jihatdash baholab, mazkur asarning diniy-ma'rifiy dunyoqarashning boyishidagi ta'sirini ham asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Uvaysiyning O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1837 raqam bilan saqlanayotgan devoni, Uvaysiy dostonining O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondidagi 11218, 11218/1, 9599 raqamli qo'lyozmalari, Andijon viloyati O'lkashunoslik muzeyining noyob kitoblar bo'limidagi AVM-194 raqamli 165 betdan iborat qo'lyozmasi, shuningdek, Uvaysiyning nashr etilgan barcha devonlari olindi.

Tadqiqotning predmeti. Uvaysiy lirikasidagi irfoniy mazmun va shoiraaning poetik mahoratini o'rganish asosida uning hayot yo'li, shaxsiyati, jumladan, Qo'qon adabiy muhitida tutgan yuksak mavqeiini ko'rsatish, she'riyatidagi ma'rifiy ma'no va irfoniy ifoda uyg'unligini asoslash, shuningdek, tarixiy haqiqatlarni anglashdagi qimmatini tadqiq va tahlil etish tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik, tasniflash, tavsiflash, analitik tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Uvaysiy she'riyatining o'z davri va keyingi zamon shoirlari ijodiga g'oyaviy-badiiy jihatdan ta'sir o'tkaza olganligi, xususan, Nodira, Mahzuna, Anbar otin, Dilshod Barno kabi yetuk shoiraalar ijodida shoira lirikasining ta'siri katta ekanligi asoslangan;

shoira an'anaviy g'azalchilikka ijodiy yondashib, Navoiy, Fuzuliy kabi so'z san'atkorlari tajribalardan ilhomlangani, jumladan, uning tasavvufiy ruhdagi g'azallari, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi chiston, tuyuq, fardlari o'zbek she'riyatini mazmun jihatdan boyitgan bo'lsa, vazn, qofiya, badiiy san'atlar kabi poetik unsurlardan to'laqonli foydalanishi shakliy-uslubiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qilganligi ko'rsatilgan;

lirikada talmeh san'atini hosil qiluvchi payg'ambarlar, valiy zotlar obrazining mohirona qo'llanilishi Uvaysiy she'riyatida irfoniy mazmun va badiiyat mushtarakligini ta'minlagani tasavvufiy timsol va istilohlar sharhlari orqali shoira she'riyatining ma'rifiy qatlamlari teranroq ko'rsatib berilgan;

Uvaysiy she'riyati janrlar rang-barangligi bilan ajralib turishi, uning topishmoq shaklida yaratilgan muvashshahlari, chiston va fardlari adabiyotimizdagi shu janrlar takomilini yuqori cho'qqiga ko'targanligi ilmiy-nazariy dalillangan;

ahli baytga muhabbatni kuylagan, dard va musibatni aks ettirgan Karbalo voqeasiga bag'ishlangan asarlarning turkiy adabiyotda paydo bo'lish omillari, turkiy "Karbalonoma"lar, xususan, Uvaysiy dostonlarida tarixiy haqiqatning badiiy talqin bilan uyg'unligi masalasi ochib berilgan, shoira dostonlarining qo'lyozma nusxalari o'zaro qiyoslanib, shakl va mazmundagi farqli jihatlar ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Jahon otin Uvaysiy lirikasining irfoniy qatlamini monografik tadqiq etish, nafaqat shoira ijodi, balki o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan asarlarning g'oyaviy-badiiy tomonlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi, ushbu muhitdagi an'ana va novatorlik to'g'risidagi xulosalarni boyitadi.

Irfoniy-badiiy adabiyotdagi tasavvufiy ramz, obraz, timsollarni istilohiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tahlil va talqin qilish nafs maqomlari, laduniy ishoratlarni to'laqonli anglash uchun asos bo'ladi.

Hamida axloq payg'ambarlardan meros. Nabiy va valiyning asarlarda zikr etilishi insoniyatning go'zal axloq bilan ziynatlanishiga sabab bo'ladi. Ularning hayotidan ibrat olish hamda ta'sirlanish adabiyotning ham bosh maqsadidir. Dard dostoni "Karbonoma"dagi voqea-hodisalar ham bani basharning kamolotiga xizmat qiladi. Shu ma'noda mazkur tadqiqot o'zbek adabiyoti tarixi va tasavvuf tarixi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ilmiy sharh, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, sistemali yondashuv, nazariy va ma'rifiy tahlil usullari orqali asoslanganligi, birlamchi tarixiy-adabiy manbaalardan va ishonchli ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari asosida chiqarilgan nazariy xulosalar Uvaysiy poetik mahoratiga aloqador masalalarning irfoniy g'oya va yangicha ilmiy qarash asosida tadqiq etilgani bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqot tufayli Uvaysiy ijodining badiiy yuksakligi, mazmunan teranligi, qisqasi, yangi ma'naviy-ma'rifiy qirralaridan xabardor bo'lish imkoni yaratiladi. Tadqiqot materiallaridan Qo'qon adabiy muhitida etishib chiqqan o'zbek shoirlarining ijodiy merosini o'rganishda foydalanish mumkin. Qolaversa, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi adabiy muhit haqida ma'lumotlar olish, boshqa shoir va shoirlar ijodini tadqiq qilish uchun ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishning materiali va umumlashma xulosalaridan o'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va tarixini yaratishda, oliy o'quv yurtlari, kollejlari va akademik litseylar hamda umumta'lim maktablari uchun shu fan bo'yicha darslik va qo'llanmalarni to'ldirishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya va falsafa fakultetlarida maxsus kurs, seminarlar tashkil etish, ma'ruzalar o'qishda salmoqli manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Uvaysiy she'riyatida irfoniy mazmun va "Karbonoma" dostoni" mavzusida erishilgan ilmiy natijalardan:

Uvaysiy she'riyati an'ana va novatorlik uyg'unlashuvi, shoir she'riyatidagi poetik tasvir, usul hamda vositalar haqidagi ayrim mulohazalar, badiiy adabiyotda "Karbonoma" mavzusining paydo bo'lish tarixini tadqiq etish, shuningdek, Uvaysiy dostonini g'oyaviy-badiiy jihatdan baholab, mazkur asarning diniy-ma'rifiy dunyoqarashning boyishidagi ta'sirini asoslash masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari va xulosalaridan O'zR Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida amalga oshirilgan PZ-20170930220 "Navoiy qomusini nashrga tayyorlash va chop etish" (2018-2020 yy.) amaliy loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 10-martdagi 3/1255-478 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek adabiyoti tarixidagi ikki buyuk shoir munosabatlarini yorituvchi ilmiy-nazariy xulosalari, navoiyshunoslikka oid turli

mavzudagi qator maqolalari va dissertatsiyadan foydalanib keltirilgan bir qator ma'lumotlar loyihaning mazmunan boyitilishiga sabab bo'lgan;

Uvaysiyning tasavvufiy timsol va istilohlar sharhlari orqali shoira she'riyatining ma'rifiy qatlamlari teranroq ko'rsatib berilganligi, janrlar rang-barangligi bilan ajralib turishi, uning topishmoq shaklida yaratilgan muvashshahlari, chiston va fardlari adabiyotimizdagi shu janrlar takomilini yuqori cho'qqiga ko'targanligining ilmiy-nazariy dalillanganligi, ahli baytga muhabbatni ko'ylaganligi, dard va musibatni aks ettirgan Karbalo voqeasiga bag'ishlangan asarlarning turkiy adabiyotda paydo bo'lish omillari, turkiy "Karbalonoma"lar, xususan, Uvaysiy dostonlarida tarixiy haqiqatning badiiy talqin bilan uyg'unligi masalasi ochib berilganligi Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida O'zR Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida amalga oshirilgan OT-FB – 78 "O'zbek adabiyoti 100 jildligini nashrga tayyorlash" (2017-2022 yy.) fundamental granti doirasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 10-martdagi 3/1255-478 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, shoira dostonlarining qo'lyozma nusxalari o'zaro qiyoslanib, shakl va mazmundagi farqli jihatlar ham tahlil qilingan monografik tadqiqot, uvaysiyshunoslikka oid turli mavzudagi qator maqolalarida alohida e'tibor qaratganligi mazkur amaliy loyihaning metodologik asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy maqola chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bobi "**XIX asrning birinchi yarmi o'zbek she'riyati va Jahonotin Uvaysiyning adabiy merosi**" deb nomlanadi. Mazkur bobning "*Qo'qon adabiy muhiti va Uvaysiy ijodi*" nomli ilk faslida XIX asrda adabiyot va madaniyatning yuksalishidagi Qo'qon adabiy muhitining beqiyos o'rni asoslandi. Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Maxmur, Gulxaniy, G'oziy, Hoziq, Ma'dan, Nodir, Ado kabi bu muhit vakillari o'tmish

adabiyotining ko‘p asrlik an‘analarini mahorat bilan davom ettirdilar, uni boyitdilar, mumtoz she‘riyatning mavzular doirasini kengaytirdilar, unga yangi janrlar va uslublarni olib kirdilar, shaklan go‘zal, mazmunan rang-barang, badiiy barkamol asarlari bilan adabiyotimizni rivojlantirdilar. Ayniqsa, bu mumtoz adabiyot tarixida "necha adad fozila xotunlarning bor"ligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dostonchilikda Hoziqning "Yusuf va Zulayxo", Uvaysiyning "Shahzoda Hasan" va "Shahzoda Husayn", Nodirning "Haft gulshan" asarlari yozilgan. Shu ma‘noda Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek adabiyoti tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Mazkur adabiy muhitning yorqin vakilasi Jahon otin Uvaysiy yashagan davr XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Qo‘qonda Umarxon va uning o‘g‘li Ma‘dalixonning hukmronliklari ostida kechdi. Ma‘lumki, "Uvaysiy xon saroyiga Nodira iltimosi bilan olib kelingan. Uvaysiy bevosita xon saroyida yashamasa ham Nodira uningsiz tura olmas, u Nodiraning doimiy maslahatchisi, she‘rda ustoz, hayotda dardkash do‘sti edi".

Uvaysiy muallimalik davridanoq o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti vakillari asarlaridan ilhomlanib she‘rlar yoza boshlagan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil uning eng sevimli shoirlari bo‘lgan. Albatta, ishda shoira asarlari o‘zi yashagan ijtimoiy-siyosiy davr, zamondosh shoirlar ijodiyoi bilan uyg‘unlikda o‘rganildi. Tahlil va talqinlarda uning og‘ir, iztirob va dardga to‘la hayoti hamda uvaysiyshunoslikda yangi bo‘lgan ba‘zi ma‘lumotlarga ham e‘tibor qaratildi. "O‘zbek shoiralari" kitobi muallifi T.Jalolovning yozishicha, shoira marg‘ilonlik olim va fozil bir zotning qizi bo‘lib, otasi unga adabiyotdan dars bergan, she‘r sirlarini o‘rgatgan. "U tez fursatda chig‘atoy (o‘zbek) va fors klassiklarini puxta o‘rganib, shoira bo‘lib etishadi. U balog‘atga etgach, erga beradilar. Eri nodon va johil bir kimsa bo‘lgani uchun Jahon u bilan murosa qilolmay, ajralib ketadi va otasining uyida istiqomat qiladi". Biroq aniqlanishicha, Uvaysiyning turmush o‘rtog‘i – Hojixon nodon kimsa emas, balki bekning arboblaridan biri bo‘lgan. Uning "nodon"ligi boshqa birorta manbaada qayd etilmagan. Barvaqt o‘lim tufayli Uvaysiy ikki farzandi bilan beva qolgan va boshqa turmush qilmagan. Bir so‘z bilan aytganda, Uvaysiy o‘z davrida o‘ziga to‘q, ma‘rifatli oilada tarbiya ko‘rgan. Uvaysiyning saroyga kelishini o‘sha davr hikoyalariga asoslanib, Abdulhamid Cho‘lpon shunday naql qiladi: "Jahonotin asli o‘zi marg‘ilonlik bo‘lgan. Umarxonning o‘zi boshliq bir necha shoirlar bo‘lganini (Fazliy, Hoziq, Ado, Gulxaniy) ularning mushovara qilganlarini eshitgandan keyin, o‘sha shoirlar majlisiga kirmak havasig‘a tushadi. Bu majlisg‘a «Zaboningni» deb boshlangan g‘azalidan mana shu ikki yo‘lni yozib, shoirlar majlisiga kiritadi:

*Meni Laxadquli deb mahrum etma, ey bog‘bon,
Azal dehqoni bag‘rim qonin to‘kkan bu gulzora.*

Shundan so‘ng kampir qiyofasidagi yosh juvonne saroy ichkariligiga kiritib yuboradilar". Bu ma‘lumotlar bilan Uvaysiy ijodini o‘rganishga ilk qadamni shoir Cho‘lpon boshlab berganligi ma‘lum. Birgina bayt bilan saroy shoirlarini lol qoldirgani haqiqatga yaqin. Sababi, o‘sha birgina mashhur baytda "Meni begona deb bu erdan mahrum qilmanglar, axir dunyo bir gulzor bo‘lsa, Azal dehqoni, ya‘ni Alloh meni ham yaratgandir, men ham shu gulzorga tegishliman", – deya o‘z davrining shoiri davronlariga murojaat qiladi. Notanish yosh juvonning mazmun

va ifodada bu qadar teranligi barchaga birdek manzur bo'lishi tabiiy holdir. Bundan tashqari, shoiraning avtobiografik asarlari ham alohida e'tiborga molikdir. Uning "Sog'indim", "Uvaysiyman", "Ko'ngul dog' o'ldi", "Taqsir", "Qutqar Xonim, Hasan baqqol balosidin meni", "G'ami dildan kima dey...", "Kafshim yo'qoldi, sendamu" kabi bir qator g'azallari Uvaysiyning shaxsiy hayotidagi ayrim lavhalarni ifoda etadi. U boshga tushgan qiyinchilik va taqdir jumboqlarini hal etishda so'z va she'rning kuchidan unumli foydalanishga intiladi:

*Bir necha mandek g'ariblarning atosi sandursan,
Mushkul ish oson qilurda muddaosi sandursan,
...Vaysiyi bechoraning dardin davosi sandursan,
Yet maning faryodima, el podshosi sandursan³.*

Buxoro amiri Nasrullo tomonidan Nodiraning vahshiyona o'ldirilishi Uvaysiyning butunlay Marg'ilonga qaytishiga sabab bo'ldi. Endi uni Qo'qonda ushlab turadigan homiy – Umarxon ham, ko'ngil homiyi – Nodira ham yo'q edi. Bu og'ir taqdir Uvaysiy ko'nglini ranjitdi. U ishq ilohiyga, qazoi qadariga rozi mo'mina sifatida qismatiga ko'nib yashadi. Oshiqlikning jabru sitamlariga chiroyli sabr qildi. U 65 yil umr kechirib, o'zining kindik qoni tomgan Marg'ilondagi hovlisida vafot etadi. Uni Childuxtaron qabristonidagi o'z urug'lari qatoriga dafn qiladilar.

Adabiyotimiz tarixida ayol shoirlar orasida Uvaysiy alohida hodisa. Chunki uning shaxsiyatida shoirlarga xos jasur, fidoiy va haqgo'y axloqiy-ruhiy sifatlar ustunlik qiladi. "Uvaysiyga qadar biron o'zbek shoiri o'z sevgilisini erkalab, uning yuzini gulzorga va unda ochilib turgan ra'noga qiyoslab g'azal bitmagan", – deb yozadi professor A.Hayitmetov. Aslida esa, yor yuzini gulga va gulzorga mengzash juda ko'p hollarda uchraydi. Uning hayotdan maqsadi – ko'ngul izmida yashash va ma'no olamidan ilhomlanib qalam tebratish bo'lgan.

A.Hayitmetov, I.Haqqul, N.Jumaxo'ja, I.Adizova kabi olimlar fikr-qarashlariga tayangan holda Uvaysiyning Qo'qon adabiy muhitidagi munosib o'rni va irfoniy maslagidan bahs yuritildi. Qo'qon adabiy muhitidagi janrlar taraqqiyotiga nazar tashlasak, asosan, adabiyotimizdagi g'azalchilik an'anasi davom ettirilgani va yangicha usulda rivojlantirilgani, tatabbu'navislik va muxammas yozish o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga chiqqani, qasidachilik va hajviyot rivojlangani, ruboiy-mustahzodlar yaratilgani, xalqona uslubda dostonlar yozish kuchaygani, adabiyotda shakl va mazmun jihatdan yangilanishga urinish boshlangani, asriy an'analar doirasini yorib chiqishga harakat qilingani, nasrga yana murojaat paydo bo'lgani, ayni paytda, musaddas, musamman, soqiynoma, masnaviy, qit'a, tuyuq kabi janrlar ham e'tibordan chetda qolmagani, hatto tazkirachilik qayta tiklanganiga guvoh bo'lamiz.

Uvaysiy kattagina lirik meros va qator dostonlari bilan Qo'qon adabiy muhiti namunalarida poetik yangilanishlar qildi. Bugungi kunda O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bir mukammal qo'lyozma devon va AnDU kutubxonasida keyingi davrlarda ko'chirilgan uch nusxa qo'lyozma devon mavjudligi ma'lum edi. Mazkur uchta qo'lyozma nusxasi

³ Увайсий. Девон. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1963, – Б. 214.

Andijon davlat pedagogika institutiga topshirilgan edi. Bu qo‘lyozmalarning oliygoh kutubxonasi tomonidan qo‘yilgan 138049 va 138050 raqamli nusxalari hozir Andijon viloyat Adabiyot va san‘at muzeyi jamg‘armasida saqlanadi. Hajmi katta qo‘lyozma 209 varaqdan iborat bo‘lib, sahifalarida 11, 12 bayt hajmda turli janrlardagi she‘rlar joylashtirilgan.

Mazkur qo‘lyozmalar Sharq devonchiligi an‘anasiga ko‘ra, hamd, na‘t, munojotlar bilan boshlangan edi. Shoira lirik merosida ham bu janrlar alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi nubuvvatga muhabbat, Rasululloh (s.a.v)ga oshiqlikning yorqin ifodalari nafaqat ko‘ngillarga ishq urug‘ini sochadi, balki islom tarixidan ham xabardor etadi. Masalan, “Na‘t” sarlavhasi bilan yozilgan musaddas:

*Me‘roj tuni Haq anga berdi mayi vahdat,
Yuz shukr Xudo bizni alarga dedi ummat⁴, –*

degan bayt bilan yakunlanadi. Sharq mumtoz adabiyotida eng ko‘p zikr etilgan voqealardan biri, shubhasiz, me‘rojdir. Jahonotin ham ushbu tun va uning musulmonlar ko‘nglidagi muqaddas tasavvurini chetlab o‘tmaydi. Hatto ayol shoira o‘laroq og‘ir mavzu, yuksak ma‘naviy rutba sanalgan vahdatdan so‘z ochadi. Shoira she‘riyatida uning ma‘naviy maqom-martabasi yorqin ko‘rinadi. Ayniqsa, na‘t va munojotlar orqali bu qarashlarimiz dalilandi.

Qo‘lyozmaning birinchi g‘azali na‘t bo‘lib, qatorasiga mavzu munojotga ulanib ketgan. Ularda “Rahm qilsang bir nafasda Vaysiy o‘lur durri safo”, “Ey haqiqat podshohi...” kabi satrlar bor. Sobiq Ittifoq davrida mumtoz adabiyot qo‘lyozmalaridan ko‘p na‘t va munojotlar nashrga chiqmagan, jumladan, Uvaysiyning ham 20 ga yaqin shunday Allohga munojotlari va na‘tlari tushib qoldirilgan.

"Bulardan tashqari Uvaysiyning uchta dostoni, «Karbalonoma» va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi asarlari ham shoiraning Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 1837 inventar nomerli devonga qo‘shib tikilgan. Shunday qilib, Uvaysiyning hozirda qariyb o‘n ming misradan ortiqroq lirik merosi ma‘lum» . 1837 inventar raqami ostidagi devonni birinchi betining ichki muqovasiga “Oydin” jurnalining 2 beti yopishtirilgani xususidagi ilmiy-nazariy xulosalar aytili. Shuningdek, ishda manbalarga tayangan holda Uvaysiy ijtimoiy jihatdan o‘ziga to‘q oilada tarbiya topgani, ya‘ni dadasi va akasi musiqashunos, hofiz odamlar ekani to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘rtaga tashlandi. Onasi esa maktabdor, o‘qimishli va o‘z shahrida mashhur bo‘lgani, eri haqida ham bironta manbaada yomon ta‘rif kuzatilmagani ta‘kidlandi.

Uvaysiyning adabiy merosi salmoqli: uning asarlari katta bir devon, shu devon davomiga yozilgan «Karbalonoma» va «Voqeoti Muhammad Alixon» nomli manzum (she‘riy) hikoyalardan iboratdir. Bu devon 1857-58 yillar mobaynida Muhammad shoh Yunusxon tarafidan ko‘chirilgan bo‘lib, yuz sahifadan iboratdir. Devonda yuqorida zikr qilingan ikki manzum hikoyadan tashqari, 169 g‘azal, 29 muxammas, 55 musaddas va 1 murabba‘, 13 chiston, 1 tarkibband, 4 tarje‘band bor. Shoiraning hamma asarlari o‘zbek tilida bo‘lib, Navoiyning to‘qqiz g‘azaliga,

⁴ Andijon viloyati O‘lkashunoslik muzeyining noyob kitoblar bo‘limida AVM 194 raqamli qo‘lyozma. – B. 11.

Fuzuliyning uch gʻazaliga va Umarxonning besh gʻazaliga muxammaslar bogʻlagan».

Uvaysiy boshqa shoiralardan farqli oʻlaroq, epik janrlarga ham qoʻl urgan. «Shahzoda Hasan haqidagi doston» va «Shahzoda Husayn haqidagi doston», «Voqeoti Muhammad Alixon» ana shu janrdagi asarlardir. Husayn haqidagi dostoni «Karbonoma» deb ham yuritiladi.

«Uning «Karbonoma»si, «Devon»i va Muhammadalixon (Umarxonning oʻgʻli, shoir)ga bagʻishlangan «Xitoy safari» nomli asarlari bor». Bu asar aslida «Voqeoti Muhammad Alixon» dostonidir. Uvaysiy uslubidagi ravonlik va sheʼriyati tilining jonli xalq tiliga yaqinligi sodda tasvir vositalarini, salaflari sheʼriyatida uchramaydigan oʻziga xos ifoda usullarini gʻazal, muxammas, musaddaslari mazmuniga singdirib yuborishiga sabab boʻlgan. Bu isteʼdodli qalam sohibasining sheʼrlari shaklan ixcham, usluban ravon, mazmunan teran, til jihatidan sodda, ularda fikr-mulohazalar aniq va tushunarli, his-tuygʻular nihoyatda samimiy ifodasini topgan. Bu omillar shoira sheʼrlarining gʻoyaviy-badiiy ahamiyatini koʻrsatuvchi asosiy belgilar boʻlib hisoblanishi bilan bir qatorda, Uvaysiyning XIX asr birinchi yarmi oʻzbek adabiyoti va umuman adabiyotimiz tarixida tutgan oʻrnini tayin etishga yetarli asos beradi.

Bir xil davr, bir adabiy muhitda yashagan Uvaysiy va Nodira sheʼriyatining oʻzaro yaqinligi va mazmunan, shaklan mutanosibliigi tabiiy hol, albatta. “*Uvaysiy va Nodira sheʼriyatidagi gʻoyaviy mushtaraklik*” faslida har ikkala shoira gʻazallariga eʼtibor berilib, avvalo, salaflari ijodini chuqur oʻrganib, ularga munosib izdoshlik qilganliklari isbotlandi. Mumtoz adabiyotimizning goʻzal sheʼriy sanʼatlaridan oʻz oʻrnida foydalangan shoiralaramizning gʻazallaridan misollarni yetarlicha keltirishimiz mumkin. Uvaysiyning “Dardsizlar zahmidin bemordirman”, degan figʻoniga javoban Nodirabegim:

Bedardlaring jafolaridin

Faryod chekib figʻon etib ket, –

deydi. Koʻrinib turibdiki, dardsizlikning oʻzi katta dard ekanligini har ikkala shoira birdek tasvirlaydi. Bu shunday bir dardki, Yaratmish va yaralmish oʻrtasidagi bor haqiqatni anglagan solik qalbida kurtak ochadigan goʻzal dard. Oshiqlik – dard. Oshiq boʻlmaslik esa – fojeadir. Nodiraning “Muhabbatsiz kishi odam emasdir”, – deganidek, ishqsizlik har ikki shoira sheʼriyatida ham birdek qoralanadi. Yoki quyidagi baytlarda shoiralarning Mansur Halloj maqomiga munosabatlari ham bir xil:

Uvaysiy:

*Har kishi Mansurdek bersa analhaqdin xabar,
Ul zamon boʻlgay ani oldida dori koʻndalang⁵.*

Nodira:

*Analhaq, mojarosin aylading fosh,
Kel, ey, Mansur, istiqboli dor et.*

Buyuklar ortidan ijod qilayotgan shoiralaramiz ham oʻz sheʼrlarida analhaqlik majorosi haqida bilganlarini yozdirib qoldirganlar. Yaʼni, har ikkala shoirada ham

⁵ Увайсий. Девон. – Тошкент: Ўздабийнашр, 1963. – Б. 175.

g'oyaviy yakdillik bor. Agarkim, Halloj kabi analhaqlikdan xabar bersang, so'zsiz istiqboling dor ostidadir. Kimki analhaqman, desa o'sha zamon oldida dori ko'ndalang turadi, deya olish shoiralarning jasoratidandir. Zamonning taloto'plarini, johillik ortidan keladigan zulmlarni anglashdagi zakiyligi va uni yorqin tasvirlash mahorati ham beqiyosdir.

Uvaysiy ham, Nodira ham o'z ijodida tasavvufning naqshbandiya tariqatinining targ'ibotchisi sifatida Ishqi Ilohiyni tarannum etishlari ishda badiiy matnlar asosida dalillandi.

Har ikki shoira Navoiy, Fuzuliy va Amiriy g'azallariga bog'lagan ko'plab muxammaslari, naziralari, Bedil she'rlariga yozgan tatabbu'lari o'zbek mumtoz adabiyot xazinasini boyitib turibdi. Uvaysiy she'rlarining mavzusi unga zamondosh Nodira va Mahzuna she'riyati bilan hamohangdir.

Uvaysiy zamondoshlari orasida shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy barkamol g'azallari bilan o'z iste'dodini va mahoratini namoyon qila olgan. Saroydagi malikai davrondan boshlab barcha iste'dodli qiz juvonlarga ustozlik qildi. Xususan, Nodira ijodiga, uning o'sib kamol topishiga sababchi bo'lgan ijodkorlarning eng birinchisi desak bo'ladi. Nodiradan tashqari, Anbar otin, Dilshodi Barno, Ko'kabibi, Ulfatbegim kabi qator shoiralarga ham adabiyot, she'riyat va musiqa ilmidan saboq bergan.

Salafkari kabi Uvaysiy ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq tarannumi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Oshiqning Ma'shuqi Azalga munosabatlari sof tasavvufiy chizgilarda namoyon bo'ladi. Shoira she'rlari orasida ilohiy ishq tasviri, insoniy komillik targ'ibi, soqiy, may va mayxonani ulug'lash, aksincha, zohidni mazammal etish kabi masalalarga duch kelamiz. U asosan tasavvufiy mavzuda qalam tebratgani uchun soqiy, may, mayxona, yuz, soch, xol, lab, qad, qosh, kiprik kabi timsollarning ko'p ma'noliligidan mahorat bilan foydalangan.

Uvaysiy va Nodira faqat ma'no ulug'vorligi bilan chekinibgina qolmay, balki go'zal she'riy san'atlarning qadim an'anasini ham davom ettirgan shoiralardir. She'riy san'atlar har qanday badiiy asarning jozibasini, uning musiqiyiligini ta'minlovchi omillarning eng asosiysidir. Ularni mohirona qo'llay bilish shoira ijodiy tafakkurini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning *“Uvaysiy she'riyati: irfoniy mazmun va badiiyat uyg'unligi”* deya nomlangan ikkinchi bobining ilk fasli *“Uvaysiy she'riyatida payg'ambarlar, valiylar obrazi va tasavvufiy timsollar talqini”*ga bag'ishlanadi. Uvaysiy she'riyatida ruhoniylarning zavqning turli ko'rinishlari mavjudligi sababi uning uvaysiyligidadir. Uning ko'ngil olamida bu zavqning jozibasi ham, ta'siri ham nihoyatda kuchli. Shu bilan bir qatorda shoira ruhoniylar va ilohiy his tuyg'ularini ma'shuqa timsoli orqali ham gavdalantirib bergan. Tasavvuf tarixida Haq ishqida kuyib-yongan Robiya Adaviya kabi so'fiy va orifa ayollar ko'p bo'lgan. Ba'zi bir she'rlarida Uvaysiy ana o'sha ayollarga hamdard, hamnafas bo'lib ko'rinadi. Uvaysiy – Oshiq. Oshiq ahliga esa Yor tomonidan keltirilgan barcha azobu uqubatlar, ozorlar ham xushdir. Oshiq degani hech narsani malol olmaydi, aksincha, o'sha sitamlarga sabr qilishning o'zi ham bir ibodatdir:

Oshiq eliga yorining ozori -ibodat,

*Ma'shuq eliga nutqi shakarbori – ibodat*⁶.

Shoira ijodining katta bir qismini uvaysiylik ruhidagi she'rlari tashkil etadi:

*Istadim men onchunon bedorlig' tog'ida deb,
To necha fahm ayladim - me'roj uyqudir menga.*

Uyquda me'rojni ko'rish ruhoniyl munosabatning ifodasi bo'lib, uvaysiylikning yana bir mohiyati ochiladi. Bedorlik – oshiqlar uchun odatiy holat. Yori vaslini istagan orif qalbidagi istak esa uning tushida hosil bo'ladi. Me'roj – bu yuqoriga ko'tarilish, ya'ni visolga etishmoq, demakdir.

Shoiraning qaysi mashoyix ruhidan tarbiya topganligi to'g'risida savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Bu savolga uning o'z she'rlaridan javob topish mumkin:

*Shukrilillah, boshima sanchdim gulekim xorsiz,
Bo'lmadi mundog' muyassar Xojai Ahrorsiz.*

Bu fikr shoiraning xorsiz (tikonsiz) gulni topishi Xoja Ahror orqali yuzaga kelgan, deyishga asos beradi. Odatda, ruhoniyl munosabat va muloqotlar ko'pincha tushda kechadi. Uvaysiyda ham shunday bo'lgan:

*Haq muyassar etdi menga bul kecha ul mohni,
So'rdilar ahvolimni izhorsiz, guftorsiz.
Ko'rmadim mundog' jahonda muhtasibi narmdil,
Moyil etdi Haq yo'liga begaron, ozorsiz (Devon, 64).*

Demak, shoirani Haq yo'liga chorlagan, ma'naviy hayotida yangilik boshlagan zot Xoja Ahror valiy bo'lgan, degan taxmin ham yuzaga keladi. Zero, devondagi mana bu baytlar mana shunday xulosalarga kelishga turtki beradi:

*Manzuli kuyi xaloyiq bandidan ozodmen,
To tariqi Xojai Ahrora oshiq bo'lmisham (Devon, 68).*

O'zi ko'rmagan, uchrashmagan biror valiy, murshid yoki piri komilning ruhoniylatidan fayz olish, uni tushida ko'rish Uvaysiyga nasib etgan. Shoira she'riyatida tasvirlangan ruhoniyl oshiqlikdir. Unda valiy zotlar ruhoniylatidan fayz olish, hol va maqomda ko'tarilish bor. shu sababli Uvaysiyning taxallusi sababi urg'u berilib, o'z asarlari orqali aniqlik kiritildi hamda tasavvufiy qo'llanmalardagi qarashlar asosida ochib berildi. Jumladan, bir she'rida shoiraning shunday iqrori keladi:

*So'zni vahm etmay degil, hozir bilib sohibqiron,
Tarbiyat qilsa, netong, hamnomiga Vays ul Qaran*⁷.

Shoira she'riyatida Mansur Halloj bilan bog'liq "Analhaqlik majorosi" ham alohida ahamiyat kasb etadi:

*Na sahrou, na shahru, na vatan ichra qaror etgum,
Analhaqdek o'ziga mast etib mahv etti mujgonlar.*

Vatanida bewatanlik, ya'ni "Musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaslik"ning go'zal ifodalaridan biri bo'lgan bu baytda lirik qahramon na sahroda, na shaharda, na vatanda qaror topmasligi orifona kechinmalarga hamohangdir.

⁶ Увайсий. Девон. – Тошкент: Ўздабийнашр, 1963. – Б. 26 (ushbu manbadan olinadigan keyingi misollar sahifasi qavsda ko'rsatiladi).

⁷ Увайсий. Кўнгил гулзори. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 158.

Uvaysiy she'riyatida foniylik, faqrlik masalalariga keng o'rin berilgan. Shuningdek, Uvaysiy nafaqat Vaysal Qaran, Mansur Halloj, Xoja Ahror Valiy kabi shaxslarni, balki, Iso, Yaqub, Yusuf, Sulaymon (a.s)lar kabi payg'ambarlar hayotidagi voqealar, ularga berilgan mo'jizalarni ham g'azallarida o'rinli tasvirlagan:

Der edim yorimni ismini Masihodir oti,

Emdi bildim, bu jahonda Vaysiy oti rost ekan (Devon, 109).

Diniy kitoblardan ma'lumki, Iso alayhissalomga o'liklarni tiriltira olish xislati berilgan bo'lib, Masih-tiriltiruvchi ma'nosini anglatadi va Iso ismiga Masih so'zi shu vajdan doim qo'shib aytiladi.

Bul mani Majnunga bergan dil Masihi birlakim,

Ya'slig' ko'ksung'a ul qilg'on sharoring yaxshimu? (Devon, 124)

Lirik qahramonning ya'sliq ko'ksi-umidsizlik girdobiga tushib qolgan qalbiga xuddi Iso Masihning tiriltiruvchi nafasi yanglig' alanga uchun bir kichik uchqun tushirgani, ya'ni sharori haqida so'zlaydi shoira.

“Uvaysiyning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati” faslida shoiraning badiiy mahorati masalasi yoritildi. Sharq mumtoz she'riyatining qator janrlarida o'z iste'dodini sinab ko'rgan Uvaysiy she'rlari shakl va mazmun jihatidan mukammalligi, badiiy san'atlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Uvaysiy o'z she'rlarining badiiy jihatdan pishiq, ta'sirchan va xalqchil bo'lishiga alohida ahamiyat bergan. Shoira, avvalo, sun'iylikdan, fikriy soxtalikdan qochadi. Uning she'rlari sodda va tushunarli, ma'noning esa teran va ko'p qirrali bo'lishiga harakat qiladi. Asarlari tili va uslubining xalqchilligini ta'minlaydi. She'riy san'atlarni mohirona qo'llay bilish shoiraning ijodiy tafakkurini belgilab beradi.

Shuni ham qo'shimcha qilish lozimki, shoira muxammaslarida g'azal qofiyasi va uning tuzilishiga e'tibor qilish bilan birga g'azalning ruhiga, unda yaratilgan timsollarning mazmuniga ham e'tibor bergan.

Ijodkor nimani tasvirlashi emas, balki qanday tasvirlashi kerakligini bilgan holda asarlarning badiiyatiga katta ahamiyat bergan. Uvaysiyning lirik asarlari jozibador va ta'sirchan bo'lishida she'riy san'atlardan unumli foydalanish mahorati qo'l kelgan. Shoira lirikasida qahramonlarning turli ichki kechinmalari, oshiqning va ma'shuqaning go'zalligini tasvirlovchi tasviriy vositalar behisobdir.

An'ana-she'riyatdagi uzviy-silsilaviy hodisa va ma'lum bir tarixiy davrni o'tagan amaliy tajribalar natijasi. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari orasida bu bosqichni o'tamagan, ustozlari boy merosidan uzilib qolgan biror bir ijodkorni uchrata olmaymiz. Ammo ijodiy ta'sirdan yuzaga kelgan har qanday o'xshash obraz va tasvirda o'ziga xos yangilik singdirilgan bo'ladi. Ana shu an'anaviylikka murojaat qilgan shoira haqida adabiyotshunos O'tkir Rashid: “...Uning g'azallarida fikriy takrorliklar, va she'riy texnologik kamchiliklar ham ko'p uchraydi», – deb baho beradi. Bu «takrorlik»lar adabiyotshunoslikda an'anaviylik, deyilib, mumtoz adabiyotimizning eng yorqin yulduzlari ham mana shu yo'ldan borganlarki, buni mashhur adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov shunday izohlagan: «Shoirilar bir turlilikni yo'qotish, unga rang-baranglik berish, motivlarini jonlantirish uchun ko'proq qofiya, vazn, texnika, ayniqsa, porloq metafora va o'xshatishlar yaratishga ahamiyat beradilar. O'z ustaliklari, originalliklarini shunda ko'rsatishga harakat

qiladilar”. Uvaysiy Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi ustoz shoirlardan bir umr mahorat sabog‘ini o‘rgandi. T.Jalolov esa o‘sha takroriylik deb atalmish «kamchilik»ni – Uvaysiy ijodidagi badiiy barkamollik sifatida isbotlash uchun besh nafar zabardast shoirlarning «Qil» radifli g‘azallarini qiyoslaydi. Amir Umarxon, Xijlat, Ado, Fazliy va Uvaysiy qalamlariga mansub bo‘lgan bir xil radifli g‘azallarning eng go‘zali Uvaysiy va Fazliyga tegishli ekanini ta’kidlaydi:

*Dilbaro, yuzung uzra kokuling parishon qil,
Husningga niqob o‘lsun, maqsadimni pinhon qil.*

Shoiraning badiiy mahorati uning poetik san’atlardan ustalik bilan foydalanganligida namoyon bo‘lgan. Shu bois tashbeh, o‘xshatish, husni ta’lil, talmeh, istiora, kitobat, insho, mubolog‘a, ruju’, tazod, savolu javob, iyhom, tanosib, ta’did, ishtiyoq, laf va nashr kabi 20 dan ortiq ma’naviy hamda lafziy san’atlarning qo‘lanishidagi o‘ziga xoslik badiiy matnlar asosida dalillandi. Jumladan, tashbehning turli turlaridan foydalanishdagi mahorati ko‘rsatib berildi. Masalan, asl maqsadini yashirin holda bayon etishning eng go‘zal namunasi quyidagi misralarda ifodalagan tashbehi izmorda kuzatish mumkin:

*Malakdur yo bashardur, yo pari na zotdindur ul,
Qilib ushshoqlig‘ kasbini ham shohonavor o‘ynar⁸.*

Asl maqsad esa Yorning ham malak, ham bashar va ham pari zotidan ekanligini aytishdir. Yoki shu yo‘l bilan Yor sifatlarini sanab berishni ko‘zlagan:

*Yuzlaring gul, kokiling sunbul, dahoning misli mul,
Qoshlaring yo, kipriging o‘qdur, ko‘zing bodomi tor (Devon, 56).*

Shoira she’riy san’atlarning har biri muayyan g‘oyaviy badiiy niyatga xizmat qilishi lozimligi yaxshi anglagan. Buyuk ijodkorlar qo‘llagan har qaysi she’riy san’at g‘oyani badiiy ifodalash, lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta’sirchanlik bag‘ishlash vazifasini bajaradi.

Devonga kirgan bir qator she’rlarida tarse’, tardi aks, takrir, tasdir, muzoraa, ichki qofiya, aks, intizom kabi san’atlar uchraydi. Yangi janrlar yaratish, yangicha fikrlash, yangicha shakl izlashga harakat qilganligiga tadqiqot davomida guvoh bo‘ldik.

Uvaysiy o‘zbek mumtoz she’riyatidagi o‘ziga xos, betakror siymo. Uning qofiya va radiflarni qo‘llash mahorati ham o‘ziga hosdir. Adabiyotshunos olim I.Adizovaga ko‘ra, “Uvaysiy she’riyatida qofiya nihoyatda muhim vazifani bajargan. Unda har bir baytda ifodalananayotgan fikrning yechimi mujassamlanadi. Qofiyani o‘qish bilan o‘quvchi tasavvuri oydinlashib ketadi. Chunki qofiya faqat ohangdorlikni hosil qiluvchi so‘zlar emas, balki ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikrning mag‘zini jamlab beruvchi badiiy ashyodir”.

Uvaysiyning takrorlanib keluvchi radiflari ham go‘zal, o‘ziga xos latiflik kasb etadi. Uning qo‘llagan kelurmish, kelmas, afsus, arz, sayd, aylagach, ibodat kabi an’anaviy qofiyalardan tashqari hanuz, alvido, bois, tushdi o‘t, mukarrar, sog‘indim kabi o‘ziga xos radiflari ham mavjud. Uvaysiy g‘azallaridagi radiflar bir so‘zli bo‘libgina qolmay 2, 3, 4, 5 so‘zdan iboratlari ham uchraydiki, ular g‘azallarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi.

⁸ Увайсий шеърятдан. Тузувчи М.Қодирова. - Тошкент: Ўзбекистон КП МК нашриёти, 1980. – Б. 36.

"Shuni qayd etib o'tish kerakki, oq she'r ana shu davrda yashagan shoirlardan Uvaysiydan boshqasida uchragan emas". Lekin professor A.Hayitmetovga ko'ra, shoira o'z g'azalida birinchi navbatda ijtimoiy mazmuni chuqur ifodalashga e'tibor berib, "mavzun", ammo qofiyatsiz she'r yaratgan. "Bu shoira ning jasorati, "o'zgartirib bo'lmas" deb hisoblangan poetika qonun-qoidalariga kiritgan o'zicha bir yangilik edi".

Uvaysiy g'azallari g'oyasi, poetik tasvir vositalari kabi aruzda ham vaznlar doirasining kengligi bilan Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos o'rin egallagan. Uning yuqorida adabiyotshunoslarimiz e'tirof qilganidek, komil va mutadorik bahrlarida mashq qilishi o'z davri uchun yangilik bo'lgan. Umuman, mumtoz adabiyot tarixida eng kam qo'llanilgan vaznlarga murojaat qilish, muallifning o'z badiiy mahoratiga ishonchini bildiradi.

